

## JIZZAX VILOYATIDA UZUMCHILIKNI KLASTER TIZIMIDA RIVOJLANTIRISH

**Toshpo‘latova Shaxlo Maxmud qizi**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti*

*Tabiiy fanlar (biologiya) yo‘nlisi 2-kurs 221(23)-guruh magistri*

**Annatsiya** - Zamonaviy tibbiyotda yurak, o‘pka, buyrak kasalliklarida, podagra, kamqonlikda, yuqumli kasalliklarda uzum mevalari yoki suvi organizmni quvvatga kirgizish va hazm tizimi ishini qo‘llab-quvvatlash, chanqoqni qondirish, peshobni kuchaytirish maqsadida tavsiya etiladi. Kamqonlik, nefrit, surunkali bronxit va boshqa kasalliklarda bemorlarning tiklanishi, umumiy quvvatini oshirish uchun tavsiya qilinadi. Odam haddan tashqari ozib ketganida quvvat beruvchi, ishtaha ochuvchi dori sifatida buyuriladi. Tok mevasining dorivor preparatlari ko‘p qon yo‘qotish, qon tomirlar tonusining o‘zgarishida, qon aylanishning buzilishida hamda shokning oldini olishda qo‘llaniladi.

**Kalit So‘zlar:** Uzum, Enoturizm, klasster, vino, toyipi, kelin barmoq, husayni, intensiv

Bugungi kunda yurtimizda fermer xo‘jaliklari tomonidan 90 ming gektar maydonda uzum yetishtirilmoqda. So‘nggi to‘rt yilda 52 ming gektar yangi tokzorlar tashkil etilib, sohaga 210 milliard so‘m subsidiyalar ajratildi. Shu davr mobaynida meva-sabzavotlar eksportida uzumning ulushi 2 baravarga ko‘paydi. Lekin bugungi bozor talabini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu sohada bundan-da katta imkoniyatlar bor. Xususan, jahon bozorida xo‘raki uzum savdosi mevalar ichida uchinchi o‘rinda bo‘lib, har yili unga bo‘lgan talab o‘rtacha 350 million dollarga o‘smoqda. Mazkur maqolam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi “2023—2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-260-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5200-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada hizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hisobga olgan holda, tok o‘simligini o‘stirishni, uning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini kengroq yoritishni va biologik hususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishni va tokning vegetativ organlari, generativ organlari ustida qator ilmiy tadqiqotlar olib borishni muhim masalalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-iyul kuni uzum yetishtirish, uni sanoat usulida qayta ishlashni rivojlantirish hamda hududlarda enoturizmni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari yurtimizda azaldan uzumchilik an'anasi bo'lgani, uni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar borligini ta'kidladi.

– Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g'ururi va daromad manbai hisoblanadi. Uzum xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlar bilan bevosita bog'lanib ketgan. Har bir ko'chada, xonadonda tok bo'lgan. Xusayni, toyfi, rizamat ota, kelinbarmoq va kishmish kabi uzumlarimizning dovrug'i uzoq-uzoqlargacha tanilgan, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Bunday uzumnavlari bo'yicha O'zbekistonning eksport salohiyatini kelgusi to'rt yilda kamida 600 million dollarga, mayiz bo'yicha 500 million dollar va tabiiy vinoda 100 million dollarga yetkazish mumkinligi hisob-kitob qilingan.

Uzumchilikning iqtisodiy samaradorligi ham, ijtimoiy ahamiyati ham katta. Masalan, 1 gektar xo'raki uzum yetishtirish uchun o'rtacha 100 million so'm xarajat qilib, 4 yildan keyin yiliga 250 million so'm sof foyda olish mumkin. Shuningdek, uzum danagidan olinadigan yog' ham jahon bozorida yuqori baholanadi.

Shu kabi tahlillar bu sohaga katta e'tibor qaratish, ko'plab masalalarni hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Afsuski, ayrim hududlarda yirik tokzorlar maydoni so'nggi to'rt yilda 7 ming gektarga yaqini, haligacha 40-50 yil avval yaratilgan uzum navlari ekib kelinmoqda. Tokzorlarni yangilashni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilmagan. Ko'chat yetishtirish ilmiga va texnologiyasiga amal qilinmaydi, ko'chat kasalliklari bilan olimlar ham, ishlab chiqaruvchilar ham shug'ullanmaydi. Shu bois, hosildorlik ham pasayib, kasallik esa kun sayin ko'payib bormoqda. Tokzorlarning atigi 38 foizi intensiv usulda parvarishlanmoqda.

Mahalliy uzumlarimiz hosildorligi Osiyoning boshqa davlatlariga nisbatan 1,5-2 baravarga kam. Qolaversa, yurtimizda yetishtiriladigan uzumlar aksariyati danakli bo'lib, jahon bozorida danaksiz uzumga bo'lgan talab keskin ortib bormoqda.

Uzumni qayta ishlash darajasi ham zamon talabi darajasida emas. Tabiiy vinoning umumiy spirtli ichimliklar iste'molidagi ulushi bor-yo'g'i 2 foizni tashkil etadi.

Enoturizm, ya'ni vino turizmi ham tarmoq sifatida rivojlanmagan. Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida to'rttagina turistik uzum plantatsiyalari tashkil etilgan, xolos.

Avvalo, tog'oldi tumanlarida yirik uzumchilik plantatsiyalarini tashkil etish zarur.

Xo'jalik yuritishning klaster shakli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etilishi hisobidan ichki va tashqi bozorlarda uzumchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlash, ko'rsatilayotgan servis tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnikaviy turlarini olib kirish va ular hisobiga tarkibiy tuzilmani tubdan o'zgartirish imkoniyatlari yuzaga keladi. O'rganish va tahlillar natijasida bugungi kunda 48 ta uzumchilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarda uzumchilikda xo'jalik yuritishning klaster shaklini amaliyotga tadbiiq etish ishlari boshlab yuborildi.

### **Uzum (vitis) yetishtirishning Jizzax viloyatidagi klasster usuli.**

**Uzumchilik** — 1) bog'dorchilikning tok o'stirish va uzum yetishtirish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Uzumchilik aholini yangi uzum, mayiz bn, vinochilik, konserva sanoatlarini xom ashyo bilan ta'minlaydi.

“Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyul, PQ-5200-son qaroriga muvofiq quyidagi vazifalar belgilangan. Mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, uzum yetishtirish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha klaster tizimini yo‘lga qo‘yish, alkogol bozorini tartibga solishning samarali mexanizmlarini keng joriy etgan holda respublikani sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash, sohaning eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, vinochilik turizmini (enoturizm) rivojlantirish maqsadida:

**1. Uzumchilikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:**

– uzum yetishtirishga ixtisoslashtirish uchun qulay hududlarda eng maqbul maydonlarni belgilash;

– xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyatlaridan kelib chiqib, uzum yetishtirishni milliy madaniyat sifatida rivojlantirish;

– uzumchilikni yirik maydonlarda, klaster va kooperatsiya usulida yetishtirish orqali sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, uzumni saqlash, saralash va qayta ishlashni rag‘batlantirish;

– mahalliy uzum navlarining milliy brendlarini yaratish va yangi bozorlarga chiqish orqali eksportni kengaytirish;

– ilmiy asoslangan holda uzum yetishtirish, uning yangi hosildor, danaksiz navlarini yaratish maqsadida uzumchilik ilmiy maktabini rivojlantirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini yo‘lga qo‘yish.

Jizzax viloyat bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni 489 262 gektarni tashkil etadi.. Hammasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida 245 ta meva-sabzavot agroklastarlari mavjud bo‘lib, jumladan Jizzax viloyatida 33 ta agroklastar korxonalarini faoliyat yuritadi. Ulardan 6 tasi paxta-to‘qimachilik, 7 tasi g‘allachilik va 12 tasi meva-sabzavotchilik klasterlaridan iborat bo‘lib, 2tasi uzumchilik klasterlarini tashkil etadi. Jumladan

1. Jizzax viloyati, G‘allaorol tumanidagi “Green garden” agroklasteri
2. Jizzax viloyati, G‘allaorol tumanidagi “Zarbuloq” agroklasteri MChJ

Viloyatda 4 ta agrologistika markazlari ishlab turibdi. 7 719 ta fermerlik va 3 190 ta dehqon xo‘jaliklari faoliyat yuritadi. 94 gektar yer maydoni fermerlik xo‘jaliklari tomonidan issiqxonalar uchun ajratilgan.

Hozirgi vaqtda 4 702 gektar yer intensiv bog‘lar uchun ajratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ma‘murov F. Uzumchiliklarning zamonoviy asoslari. 2020, 205 b.
2. Pibakov A. Gorbach I. va boshqalar. O‘zbekiston uzumchiligi. Toshkent, 1969, 32-45b.
3. Abdullayev R.M. va boshqalar. Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi. T.Fan. 2011, 54 b.

4. Buzun N. va boshqalar, O‘zbekiston uzumchiligi. Toshkent 1956, 122 b.

5. R.Yunusov, G‘.A.G‘aniyeva, X.X.Salimova. Uzunni saqlash va quritish texnologiyasi. Durdona nashriyoti, Buxoro, 2022, 33 b